**УЎК: 631.631.527.8+631.529**

# QORAQALPOG'ISTONNI ÓRTACHA SHÓRLANGAN TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA XORIJIY NAV, NAMUNALAR, MAHALLIY NAVLAR HAMDA ULAR ISHTIROKIDA OLINGAN $F_2$ DURAGAYLARNING MIKRONEYR MIC KÓRSATKICHI TAHLILLARI

**Jolimbetova Rawiya Majit qizi**
*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti*
*e-mail:* rawiyanawriz@gmail.com

**Ahmedova Sarvinoz Assom qizi., Soliyeva Muxlisa Azimboy qizi**
*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari*

**DOI : https://doi.org/10.5281/zenodo.17536565**

***Annotatsiya.*** *Qoraqalpog'istonni órtacha shórlangan tuproq-iqlim sharoitida $F_2$ duragaylar mikroneyr kórsatkichi bo'yicha yuqori bólgan ósimliklar ajratib olindi.*
***Kalit so'zlar:*** *Tezpishar, mahsuldor, tola chiqimi va indeksi, ekologik va geografik uzoq shakllar, tolani mikroneyr belgisi, ózgaruvchanlik koeffitsienti.*

***Abstract.*** *In the moderately saline soil and climatic conditions of Karakalpakstan, plants with a high micronaire Mic indicator of $F_2$ hybrids were isolated.*
***Keywords:*** *Early-ripening, productive, fiber yield and index, ecologically and geographically distant forms, fiber micronaire trait, coefficient of variability.*

**Kirish.** Málumki, jahonda paxta etishtiruvchi barcha davlatlarda yangi yaratilayotgan navlarda tolaning sifat belgisi eng muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. G'o'zaning qimmatli xójalik belgilari yuqori bólishi bilan bir qatorda tola sifat kórsatkichlari jahon andoza talablariga javob berishi zarur. Bugungi kunda paxtachilik agro-klasterlari va fermer xójaliklari tomonidan tolaning sifat kórsatkichlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda ekologo-geografik uzoq nav, namunalar, mahalliy navlar hamda ular ishtirokida olingan $F_2$ duragaylarni Qoraqalpoǵistonni órtacha shórlangan tuproq-iqlim sharoitida mikroneyr Mic kórsatkichi tahlil qilindi. Tolaning sifat kórsatkichlari "Sifat" sertifikatlash markazida HVI zamonaviy ólchov asbobida aniqlandi.

G'o'za selektsiyasida erishilgan muvaffaqiyatlarning aksariyati tur ichida kelib chiqishi jixatidan uzoq bólgan namunalarni chatishtirish natijasida yaratilgan navlarda namoyon bóladi. Shu sababli ham kóplab olimlar ǵózaning ekologik va geografik jixatdan uzoq bólgan shakllarini duragaylash asosida qimmatli xójalik belgilarini yaxshilash asosida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar [18; 51-55-b.].

Málumotlariga qaraganda O'zFA Genetika va ósimliklarning ekspterimental biologiyasi institutining ǵóza kollektsiyasi namunalari ekologo-geografik órganilishi natijasida namunalarning bir guruhi shórga bardoshli yáni, A-2175

(Qirǵisiton), A-2177 (Ukraina), A-2179 (Xitoy) namunalar ajratib olinib boshlanǵich ashyo sifatida tavsiya etilgan [69; 1360-1368-b.].

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqotlarda tolani mikroneyr belgisi bóyicha asosiy qimmatli xójalik belgilari tahlillari asosida tanlab olingan 25 ta yakka tanlovlar (K=0,2) 3,9 dan 5,2 gacha oraliǵida ósimliklar bólib 7 ta sinfda ósimliklar uchradi. Mikroneyr belgisi bóyicha ekologo-geografik uzoq nav, namunalarida órtacha kórsatkichlari 4,42 dan, 4,65 gacha, mahalliy navlar 4,48 dan Chimboy-5018 navida, 4,73 gacha Sulton navida hamda $F_2$ duragaylarida 4,44 dan, 4,61 gacha va andoza S-4727 navida 4,58 ni tashkil etdi. Asosiy ósimliklar 4,3-4,8 oraliǵida, 3-5 sinflarda kóp uchraganligi, yáni ota-ona shakllarida va $F_2$ duragaylarda 64,0-76,0 foiz oraliǵida ósimliklar mavjudligi aniqlandi. Tolani mikroneyr belgisi bóyicha ózgaruvchanlik koeffitsienti ota-ona shakllarida 5,6-8,1 foiz oraliǵida, $F_2$ duragaylarda esa 5,6-6,4 foiz oraliǵida bóldi. G'óza kollektsiyasidagi xorijiy nav, namunalar ishtirokida olingan $F_2$ duragaylardan tanlab olingan ósimliklarni mikroneyr (Mic) belgisini ózgaruvchanlik tahlili.

| № | Ota-ona shakllari va $F_2$ duragaylar | K=0,2. | | | | | | | n | M±m | δ | V % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 3,9 - 4,0 | 4,1 - 4,2 | 4,3 - 4,4 | 4,5 - 4,6 | 4,7 - 4,8 | 4,9 - 5,0 | 5,1 - 5,2 | | | | |
| 1. | (Xitoy) 06058 | 2 | 2 | 11 | 4 | 3 | 2 | 1 | 25 | 4,50± 7,3 | 0,4 | 8,1 |
| 2. | (Afrika ) 06199 | 1 | 1 | 2 | 10 | 5 | 4 | 2 | 25 | 4,65± 5,6 | 0,3 | 6,0 |
| 3. | (Afrika ) 06201 | 2 | 4 | 9 | 6 | 2 | 1 | 1 | 25 | 4,42± 5,7 | 0,3 | 6,4 |
| 4. | (Avstraliya) 06830 | 1 | 3 | 10 | 6 | 3 | 2 | | 25 | 4,46± 5,0 | 0,2 | 5,6 |
| 5. | (Avstraliya) 09801 | 2 | 3 | 9 | 6 | 3 | 1 | 1 | 25 | 4,51± 5,7 | 0,3 | 6,4 |
| 6. | (Hindiston) 16461 | 1 | 3 | 4 | 7 | 5 | 3 | 2 | 25 | 4,58± 6,2 | 0,3 | 6,8 |
| 7. | (Pokiston) 07291 | 2 | 2 | 11 | 4 | 3 | 2 | 1 | 25 | 4,46± 5,9 | 0,3 | 6,6 |
| 8. | (AQSh) 011571 | 2 | 2 | 3 | 9 | 4 | 2 | 3 | 25 | 4,59± 6,8 | 0,3 | 7,4 |
| 9. | (AQSh) 011597 | 1 | 3 | 5 | 10 | 4 | 1 | 1 | 25 | 4,51± 5,3 | 0,3 | 5,8 |
| 10. | KK-3535 | | 1 | 5 | 10 | 4 | 3 | 2 | 25 | 4,62± 5,1 | 0,3 | 5,6 |
| 11. | Chimboy-5018 | 1 | 2 | 11 | 5 | 3 | 2 | 1 | 25 | 4,48± 5,7 | 0,3 | 6,3 |
| 12. | Sulton | | 1 | 2 | 10 | 5 | 4 | 3 | 25 | 4,73± | 0,3 | 6,6 |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | 6,2 | | |
| 13. | $F_2$ (Xitoy. 06058 x KK-3535) | 1 | 4 | 9 | 5 | 4 | 2 | | 25 | 4,45± 5,2 | 0,3 | 5,8 |
| 14. | $F_2$ (Afrika. 06199 x Sulton) | 1 | 2 | 3 | 8 | 6 | 3 | 2 | 25 | 4,61± 5,9 | 0,3 | 6,4 |
| 15. | $F_2$ (Afrika. 06201 x Chimboy-5018) | 1 | 3 | 10 | 5 | 4 | 2 | | 25 | 4,47± 5,0 | 0,2 | 5,6 |
| 16. | $F_2$ (Avstraliya. 06830 x Chimboy-5018) | 2 | 3 | 11 | 4 | 3 | 2 | | 25 | 4,42± 5,3 | 0,3 | 6,0 |
| 17. | $F_2$ (Avstraliya. 09801 x KK-3535) | 2 | 3 | 9 | 5 | 4 | 2 | | 25 | 4,45± 5,4 | 0,3 | 6,1 |
| 18. | $F_2$ (Hindiston. 16461 x Sulton) | 1 | 2 | 2 | 11 | 5 | 3 | 1 | 25 | 4,60± 5,4 | 0,3 | 6,0 |
| 19. | $F_2$ (Pokiston. 07291 x KK-3535) | 1 | 4 | 10 | 4 | 3 | 3 | | 25 | 4,45± 5,5 | 0,3 | 6,1 |
| 20. | $F_2$ (AQSh. 011571 x Sulton) | 2 | 3 | 10 | 5 | 3 | 2 | | 25 | 4,44± 5,4 | 0,3 | 6,1 |
| 21. | $F_2$ (AQSh. 011597 x Chimboy-5018) | 1 | 1 | 4 | 10 | 4 | 3 | 2 | 25 | 4,61± 5,6 | 0,3 | 6,2 |
| | *St.* S-4727 | 1 | 2 | 3 | 11 | 5 | 2 | 1 | 25 | 4,58± 5,0 | 0,2 | 5,5 |

**Xulosa.** Yuqoridagi tadqiqotlarda natijasida quyidagicha xulosaga kelib, tolani mikroneyr kórsatkichi bóyicha 4,9 va undan yuqori bólgan ota-ona shakllarida va $F_2$ duragaylarda 30 tadan ósimliklar 6-7 sinflarda uchraganligi, andoza navida ushbu sinflarda 3 ta ósimliklar uchradi.

Tadqiqotlarda tolani sifat belgilaridan mikroneyr kórsatkich bóyicha Qoraqalpoǵistonni órtacha shórlangan tuproq-iqlim sharoitida xorijiy nav, namunalar, mahalliy navlar hamda ular ishtirokida olingan $F_2$ duragaylardan tahlillari asosida variatsion qatorning 2-4 sinflardagi tezpishar, mahsuldor, tola chiqimi va indeksi kabi belgilari yuqori bólgan ósimliklar ajratib olindi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Amanturdiev I.G'., Namazov Sh.E., Matyoqubov S., Niyatov B., Tóxliev M. G'ózaning ekologo-geografik va genetik uzoq $F_1$ duragaylarda hosildorlik komponentlarining shakllanishi. "Qishloq xójalik ekinlari genetikasi, selektsiyasi, uruǵchiligi va etishtirish agrotexnologiyalarining dolzarb muammolari hamda rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari tóplami.(2018 yil, 18-19 dekabr) Toshkent-2018. B. 51-55.
2. Amanturdiev A.B., Rejapova M., Qurbanbaev I., Azimov A., Matniyazova X.Study on the Stability of World Diversity of Cultured Species G. hirsutum L. to Salination. American Journal of Plant Sciences. №4. DOI: 10.4236/ajps.2020.119097. P. 1360-1368.